

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ,  
ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ НОДАВЛАТ ВА  
НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТИ

СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ

# "ДАВР, ЗАМОН, ШАХС"

"ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТДА ТАРИХ  
ВА ЭТНОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИНГ ДОЛЗАРБ  
МАСАЛАЛАРИ, РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
ИСТИҚБОЛЛАРИ"

мавзусидаги

Республика илмий анжумани мақолалар тўплами



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ,  
ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

**ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ НОДАВЛАТ ВА  
НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТИ**

**СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ**

# **“ДАВР, ЗАМОН, ШАХС”**

**“ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТДА ТАРИХ  
ВА ЭТНОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИНГ ДОЛЗАРБ  
МАСАЛАЛАРИ, РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
ИСТИҚБОЛЛАРИ”**

**мавзусидаги**

*Республика илмий анжумани мақолалар тўплами*



**TOSHKENT  
“FAN VA TA'LIM”  
2023**

**УЎК 808.5(075.8)**

**КБК 83.7уа73**

**A77**

“Давр, замон, шахс” “Янги Ўзбекистон шароитда тарих ва этнология фанларининг долзарб масалалари, ривожланиш тенденциялари ва истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий анжумани мақолалар тўплами / С. Турсунов. – Т.: “Fan va ta’lim”, 2023. – 802 б.

**Масъул муҳаррир:**

*т.ф.д., проф. С.Н. Турсунов*

**Такризчилар:**

*ф.ф.д.профессор П.Бакров,  
ф.ф.н. доцент. Б.Муртазаев,  
т.ф.д.доцент Т.Р.Пардаев,,  
п.ф.н.доцент М.Бозорова,  
т.ф.б.ф.д.(PhD) И.Қаришиев,  
т.ф.б.ф.д (PhD) Г.Ахмедова,  
ўқитувчи М.Рахмонов*

**Котибият аъзоси:**

*Қўшоқова Моҳигул Турсуновна*

ISBN-978-9943-000-0-0

“Fan va ta’lim”, 2023 й.

ош пиширтиришган. Негаки, аҳолининг асосий тирикчилиги лалмидан бўлган. Шу боис ана йўл тутишга мажбур бўлишган. Узилган хамирни қозонга ташлаётганда «бисмиллоҳир раҳмонир роҳийм, илоҳим, ёмғирларимиз кўп ёғсин, сувимиз сероб бўлсин, деҳқончилигимиз мўл бўлсин» каби сўзларни айтиб, тилак билдиришади. Ушбу маросим гувоҳининг сўзларига қараганда, 2009 йили узма ош тайёрлаш маросими ўтказилгандан кейин кўп ўтмай Деҳқонободда тинмай жала ёққан экан<sup>1</sup>.

Бойсун тоғи ғарбидаги Мачай қишлоғида ёмғир чақиришнинг яна бир қизиқ усули мавжуд бўлиб, у «кал боғлаш» деб аталади. Кал боғлаш – узун ипни олиб, қишлоқдаги калларнинг ишини айтиб, тугун қилиб боғлашган. Бир қанча тугундан иборат «тизма» нам жойга кўмиб қўйилган. Ёмғир ёғиб безор қилганда тугунлар олиниб, ўчоқ тагига кўмилган<sup>2</sup>.

## **BUXORO VOHASI AHOLISI IJTIMOIIY HAYOTIDA OILAVIY MAROSIMLARINING AHAMIYATI: TA'QIQLAR VA OLCISHLAR**

**Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna,**  
*Buxoro davlat universiteti*  
*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

Insoniyat hayotida uchraydigan marosim va an'analarni turli ta'qiqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushuncha "tabu" nomi bilan yuritiladi. "Tabu" polinezcha so'z bo'lib, lug'aviy jihatdan "ta" - ajratmoq, "bu" – butunlay, ya'ni butunlay ajratilgan ma'nosini bildiradi. Xalqaro miqyosda olib qaraydigan bo'lsak, termin sifatida "ma'n etilgan" ma'nosida ishlatilib, ya'ni o'zbek tilidagi ta'qiq bilan sinonim sanaladi. Demak,

<sup>1</sup> Дала ёзувлари, Термиз шаҳри, 2021 йил апрель.

<sup>2</sup> Дала ёзувлари, Бойсун тумани, Мачай қишлоғи, 2021 йил май.

biz Buxoro vohasidagi nikoh marosimlarida ham ana shunday bir qator ta'qiqlarga duch kelamiz. Masalan, vohada to'y kuni kelin nikoh ko'yilgiga to'g'nag'ich qadashi mumkin emas. Shuningdek, nikoh o'qilayotgan paytda eshik, sandiq va boshqa narsalarga qulf solinishi mumkin emas. Mana shunday omillarning barchasi baxtning bog'lanishi yoki omadsizlikka ishora sifatida qabul qilingan.

Qolaversa, kelin va kuyovga nikoh sarposini kiydiruvchi kishilar bilan ham bog'liq ta'qiqlarni hayotda ko'plab uchratamiz. Kelin kuyovga baxt kiyimini farzandsiz yoki ikki-uch turmush ko'rgan kishi kiydirishi mumkin emas. Aks holda, nikohlanuvchilarning taqdiri ham shunday bo'lishi mumkin. Hatto tor tortish marosimida dorni ham beva ayol urishi ta'qiqlangan.

Vohada to'y kuni kechasi yoqilgan sham, mash'ala, gulxan suv sepib yoki puflab o'chirilmasligiga ham alohida e'tibor berilgan. Bunga sabab ko'zlangan maqsad kelin-kuyovning baxti ham shu olovdek yorqin va ravshan bo'lishiga ishora qilinadi.

Voha aholisi orasida nikoh to'ylarida ranglar bilan bog'liq qator tabular ham mavjud bo'lib, kelin va kuyov qora libos kiyishi mumkin bo'lmagan. Hatto chimildiq dasturxon ham qora bo'lmasligi kerak bo'lgan. Chunki qora bu baxtsizlik ramzi hisoblangan. Baxt ramzi sifatida oq rang tushuniladi. Shuning uchun shu rangdagi kiyimlar, sarpolar, noz-ne'matlar soni ko'p bo'lgan.

Kelin-kuyovga atalgan dasturxonga noz-ne'matlar ham toq qo'yilmaydi. Umuman butun to'y davomida barcha narsalarning juft bo'lishiga alohida ahamiyat berishgan.

Yangi kelinning qo'liga ilk bor achchiq narsa berish ma'n qilinadi, aksincha kelinning qo'liga birinchi bo'lib xo'jalikda unga atab so'yilgan qo'chqorning dumbasi to'g'rashga berilgan. Bu bilan kelinning qo'li doim yog'li-barakali bo'lishini tilashadi. Bundan ko'zlangan maqsad esa kelin- kuyovning qo'sha-pir, ayolband bo'lishidir.

Dafn marosimlarida ham xuddi shunday ta'qiqlar mavjud. Bulardan birinchisi, vafot etgan shaxs to yuvilmaguncha uning yoniga Qur'on o'qilmaydi. Chunki islom dinining muqaddas kitobini

faqat pok tahoratli holda va pok joyda o‘qishga ruxsat etilgan. Mayyit esa to yuvilmaguncha nopok hisoblanadi. Shuningdek inson vafot etishi bilan nikoh buzilishi sababli, ayol kishini o‘z eri yuvishi ham mumkin emas. Murdani yuvish va unga qabr qazish ishlarini bajaruvchi xizmatchilarning qilgan mehnatlari evaziga haq talab qilishi ham islom dini an‘analariga ko‘ra taqiqlangan. Buning sababi bu kabi amallar savobli sanalib, uning haqini yaratuvchining o‘zi beradi deb hisoblashgan [1.]. Lekin, afsuski bugungi kunda bu tamoyilga deyarli amal qilinmaydi. Chunki bugungi kunda bu xizmat turlarining hammasi pullik hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, dafn marosimlarini to‘ylardan farqli ravishda shom namozidan keyin o‘tkazilmaydi. Marhumni ko‘mish uchun qabr boshiga ayollarning chiqishi ham ta‘qilangan. Bunga ayollarning hissiyotga beriluvchanligi, haddan tashqari ko‘p oh voh qilib, boshqalarga noqulaylik tug‘dirishi mumkinligi sabab qilib ko‘rsatiladi.

Voha aholisi marosimlarini olqishlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Ana shu olqishlarga misol sifatida Buxoroning fотиha to‘ylariga xos bo‘lgan muxammasxonlik jarayoni hisoblanadi. **Muxammas so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga** beshlik deb tarjima qilinadi. U ko‘proq sharq she‘riyatiga xos bo‘lib, qofiyalanish tartibiga ko‘ra tuzilgan she‘rdir. Muxammasning har bir bandi besh misradan iborat. Muxammas ko‘p hollarda shoirlar uchun fikr-kechinmalarini chuqurroq ifodalash, boshqa shoirlar bilan musobaqalashish, bahslashuv vositasi bo‘lgan [2.]. Muxammaslarning doira usuli davomli va murakkab hisoblanadi. Bugungi Buxoro vohasi to‘ylariga ham aynan shu usul xosdir. Odatda to‘y davom etayotgan vaqtda ayol xonanda davra o‘rtasiga muxammasxonlikni boshlaydi. Xonandaning yoniga kelgan har bir ayol va juvonning go‘zalligi, ko‘rkamligi, alohida xususiyatlari, tutgan mavqeiga qarab unga she‘riy tarzda ijobiy ta‘rif beriladi. Muxammaslar ko‘pincha vohaga xos bo‘lgan tojik tilida aytilgan. Shunday muxammaslardan misol keltirsak:

Adar daroet man nigohaton kunam  
Andisha ba chashmai siyoi shumo kunam.  
Yak mol nadoram zakotaton kunam  
Yak joni aziz doram dashmo qurbon kunam.

Bu muxammasning ma'nosiga to'xtalib o'tsak:  
Eshikdan kirsangiz sizga termulaman  
Qora ko'zingizdan andisha qilaman.  
Molim yo'qki, sizga zakot qilsam  
Bir aziz jonim bor. Sizga qurbon qilay.  
Yana bir boshqa muxammas:

Duxtar doram chil ro'za  
Kasro binat gureza  
Duxtari xushro'yi xushbo'yiman,  
Biyo shin da ro'baro'yiman  
Modar rozi az korat

Padar rozi az korat  
Az dilaki beg'uborat[3.].  
Ma'nosi:

Qirq kunlik qizim bor  
Kishilar ko'rsa qochadi,  
Chiroyli, xushbo'y qizim kelib qarshimga o'tir  
Ona rozi ishingdan,  
Ota rozi ishingdan  
Beg'ubor qalbingdan.

Muxammasxonlik tugagandan keyin, yana xursandchilik davom etgan. Muxammasxonlikda shuningdek, qarsakdan ham foydalanganlar. Qarsak o'zi musiqiy asbob bo'lmasa ham, uni ko'p marosimlarda ishlatganlar. Uni ishlatishni bilganlarni "qarsakbozlar" deb atashgan. U odatda to'rtta bo'lib, ikkita qo'lda ikkitadan qilib kuy yaratilgan. Hattoki bu kuyga raqsga tushadigan maxsus o'yinchilar ham bo'lgan[4,B.106]. Marosim so'ngida yoshi katta momolardan biri dasturxonga duoi fotiha qilingan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, marosimlarda odatiy duch keladigan

holatlardan biri bu turli xildagi ta'qiqlardir. Ta'qiqlar odatda insonni yomonliklardan qaytaruvchi, jamiyatda qabul qilingan meyoriy qoidalarni tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. Marosimlarda duch keladigan ta'qiqlar ham ko'p hollarda ezgulik maqsadlarini ko'zlaydi.

Vohada o'tkaziladigan marosimlarni kuy qo'shiq, olqishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Barcha xalqlarda bo'lgani kabi, Buxoro vohasi aholisining marosimlari ham ko'plab, olqishlar, muxammaslar bilan qiziqarli o'tadi. Ular xalqning donoligi va zakovatining yorqin namunasi sanaladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro tumani. 2021 yil.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/muxammas-uz/>
3. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati, Buxoro shahri. 2019 yil dekabr.
4. Шишов А. Таджики. –Ташкент: 1910. –164 с.

## **SURXON VOHASI HUNARMANGLARINING TAOMLAR BILAN BOG'LIQ UDUMLARI VA TARIXIY TAHLILLARI**

**Mamarajabov G'ayrat Abdulkakimovich,**

*Termiz davlat universiteti Jahon tarixi  
kafedrasi katta o'qituvchisi.*

*e-mail: [turon-1980@mail.ru](mailto:turon-1980@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Hunarmandlar tomonidan tayyorlagan supradan tashqari xamirli taomlar tayyorlashda qo'llaniladigan anjomlardan o'qlov, elak, rapida, engcha va kosovlar bilan ham bog'liq bir qator irim-sirimlar mavjud. Vohadagi hunarmandlar qozonning halolligiga va toza tutilishiga katta ahamiyat berilgan chunki ularning rizqiro'zini qozonsiz tasavvur qilib bo'lmagan. Voha hunarmandlari oilasiga oid kundalik turmushida mis va cho'yan qozonlar ishlatilgan.



**Қосимов Абдисаттор Чориевич, Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси эркин тадқиқотчиси.** Чорвадор аҳолининг миллий кийим-кечақлари ва унинг ўзига хос хусусиятлари ..... 391

**Akmaljon Abdurasulov, Namangan universiteti erkin tadqiqotchisi.** Turkistonda vaqtlı matbuot va matbaa ishlarini yuzaga kelishida tatar ma'rifatparvarlari bilan hamkorlik aloqalari..... 395

## **6-SHO'BA. O'ZBEK XALQINING MA'NAVIY MADANIYATI, MUSIQASI VA SAN'ATINING TARIXI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

**Курбонова Манзила Боқиевна, Бухоро давлат университети археология ва бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н., Калонова Ирода Тургуновна, Этнография, этнология ва антропология мутахассислиги 2-бошқич магистранти.** Миллий тарбияда фарзандга эътибор масалалари.. 401

**Ahmedova Gulchehra O'skinovna, Termiz davlat universiteti jahon tarix kafedrasi o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).** O'zbek milliy dostonchilik an'analari ..... 405

**Умаров Икромжон Ибрагимович, Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).** Сурхон воҳасида деҳқончилик билан боғлиқ маросимлар... 409

**Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna, Buxoro davlat universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).** Buxoro vohasi aholisi ijtimoiy hayotida oilaviy marosimlarning ahamiyati: ta'qirlar va olqishlar ..... 416

**Mamarajabov G'ayrat Abdulkakimovich, Termiz davlat universiteti jahon tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi.** Surxon vohasi hunarmandlarining taomlar bilan bog'liq udumlari va tarixiy tahlillari..... 420

**Jumayev Mustafо Erkin o'g'li, Termiz davlat unversiteti Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi.** Uzun etnotoponimining etimologik va tarixiy tahlili.. 428

**Қўшоқов Сафарали Юсупович, Термиз давлат университети Ўзбекистон тарих ва манбаашунослик кафедраси докторанти.** Ўзбекистон жанубий худудларида дафн маросимларнинг ўзига хос хусусиятлари ..... 433